



QAMARIDDINOVA Gulrux Akmal qizi
Buxoro muhandislik-texnologiyasi instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi
gulruxqamariddinova@gmail.com

BAHOUDDIN NAQSHBAND ASOSLAGAN RASHHALARDA EZGULIK MASALALARI

ВОПРОСЫ ДОБРОДЕТЕЛИ В РАШХАХ ОСНОВАННОМ БАХАУДДИНОМ НАКШБАНДОМ

QUESTIONS OF VIRTUE IN THE RASHHAS OF BAHĀ' -AL-DĪN NAQSHBAND

Annotatsiya: Maqolada Faxruddin Ali Safiyning “Rashohotu aynil-hayot” asaridan o‘rin olgan tasavvufning yirik namoyondasi bo‘lmish, Bahouddin Naqshband asos solgan, tariqat yo‘li va rashhalari falsafiy jihatdan tahlil etiladi. Islom - ezgulik dini hisoblanib, barcha mutasavvufklar rashhalarida bu mavzuga alohida yondashganlar. Inson nafsini doimo pok saqlashi, har davrda ogoh va ziyrak bo‘lishi rashhalarning asl ma‘nosini tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: rashha, tasavvuf, ruhiyatshunoslik, ogohlik, axloq, tarbiya, xilvat, hushyorlik, ezgulik

Аннотация: В статье философски анализируются путь и принципы основанной Бахауддином Накиббандом, крупнейшего проявления суфизма, взятой из «Рашихоту Айнил-Хаят» Фахруддина Али Сафи. Ислам считается религией добра, и все мистики в своих сочинениях имеют особый подход к этой теме. Истинное значение рашиха — всегда сохранять свое эго чистым, всегда быть бдительным и разумным.

Ключевые слова: рашиха, мистика, психология, сознание, мораль, образование, добродетель, бдительность, добро.

Annotation: The article philosophically analyzes the path and principles of the sect founded by Bahauddin Naqshband, a major manifestation of Sufism, taken from Fakhruddin Ali Safi's «Rashohotu ainil-hayat». Islam is

considered to be a religion of goodness, and all mystics have a special approach to this topic in their essays. The real meaning of rashhas is to always keep one's ego pure, to be alert and intelligent at all times.

Key words: rashha, mysticism, psychology, awareness, morality, education, virtue, vigilance, goodness

KIRISH

Tasavvuf juda keng ma'noga ega, nazariy va amaliy sohalaridan iborat insonshunoslik, nafsshunoslik, ruhiyatshunoslik ta'limotidir. Naqshbandiya ta'limotini bir so'z bilan ifodalasak-insonlarni Alloh roziligiga erishtirishdir [5, 166]. Tasavvuf so'zi “so‘f” ya'ni jun kiyimni kiyish, so'fiy bo'lib haq yo'lidan yurish va shuningdek darvishlar tariqasi ma'nolarida qo'llaniladi. “Tasavvuf” so'zi istiloh (atama) sifatida bir ma'naviy tariqatdan iborat bo'lib, uning payrovlari aqidasi binoan nafas (ichki dunyo) ni pokizalash natijasida haqiqat yog'dusi inson qalbida porlay boshlaydi. [1, 11]. Dastlab “rashha” degan tushunchaga to'xtalsak, rashha – tomchi, sizib chiqqan suv degan ma'noni bildiradi [2,612]. Tasavvuf istilohi sifatida esa xojagon-naqshbandiyagi maxsus qoida, odob va talablar nazarda tutiladi. Xojagon –ulug' zotlar, buyuk xojalar demakdir. Xojagon-naqshbandiya tariqatining mashhur o'n bir rashhasi quyidagilar: hush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman, yodgard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht, vuqufi qalbiy, vuqufi adadiy, vuqufi zamoniyy [6,146].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Manbalarga ko'ra, ushbu rashhalarning dastlabki sakkiztasi G'ijduvoniyy hamda uchitasi Bahouddin Naqshband tomonidan ishlab chiqilgan. Lekin ushbu rashhalarning avvalgi to'rttasini Yusuf Hamadoniyy tariqat ta'limotiga kiritgan, degan qarashlar ham mavjud.

1. *Hush dar dam* - دم در هوش. Rashhadan murod shuki, inson har doim, har nafasda hushyor, sergak bo'lmog'i lozim. Insonning ichidan chiqayotgan har bir nafasi ogohlik va huzur bo'lishi kerakki, unga g'aflat hech yo'l topmasin. Doimo Allohning zikri bilan mashg'ul bo'lish, uni yodida tutish lozim.

2. *Nazar bar qadam* - نظر بر قدم. Bu rashhada ikki xil ma'no ang'lanadi ya'ni tashqi ma'noda

yo'liga diqqatlik ila qadam bossin, gunohga bormasin. Ichki ma'nosi esa "tariqat yo'li"dan hech qayerga og'may yurish.

Masnaviy:

Kam zada behamdamiyi xush dar dam,

Dar nagzashta nazarash az qadam.

Baski, zi hud karda ba sur'at safar

Boz namonda qadamash az nazar.

(Hushyorliksiz biror nafas ham olmagan,

Nazari qadamidan o'zga yerda bo'lmagan.

U o'zligidan sur'at bilan safarga, ya'ni uzoqqa ketgan,

Har bir qadami nazardan holi bo'lmagan) [3,40].

So'fi Olloyor " Sabot ul-ojizin" da mazkur rashhaga ishora qilib yozgan:

Kel, ey mo'min, agar tarsanda bo'lsang,

Ko'zingni saqlagil qayda bo'lsang [6,150].

3. *Safar dar vatan*- سفر در وطن. Safar qilish ham ikki xil ma'noda ifodalanadi. Mashaqqatli safarga chiqish ila toblanish; vatanda turib o'zining qalbiga safar qilish, nafsiga sabr qilish kabi tahlil etish mumkin. Tariqat shayxlarining fikricha, ibtidoda safar qiluvchiga parishonlikdan o'zga foyda yo'q. Solik bir aziz kishining sihatiga yetdimi, sabr qilishi, xojagonlarning tajribasini qo'lga kiritishi va shundan so'ng istagan joyiga safar qilishi mumkin.

4. *Xilvat dar anjuman*- خلوت در انجمن. "Xilvat" – yolg'iz, tanho qolish demakdir. Ushbu rashhaning ma'nosi anjumanda, ko'pchilik orasida tanho qolish ya'ni o'zini yolg'iz his qila olishdir. Tariqatga ko'ra jamoat orasida bo'lsa ham Alloh yodi bilan tanho qolish, aslo uni unutmaslik tushuniladi. Bahouddin Naqshband ham asosan shu yo'lni tanlaganlar. Chunki yolg'izlikda zikr qilish oson. Anjumanda chalg'imag Alloh yodi ila qolish mushkuldir.

5. *Yodkard*- ياد كرد. Forschadan "eslamog" degan ma'noni anglatadi. Inson zikrda bo'lsagina, tili, qalbi poklanib turadi. Rashhalarining ham barchasining asosiy mazmuni shunday: insonni poklikka, kamolotga chorlash.

6. *Bozgasht*- باز گشت. Orqaga qaytish ya'ni asl maqsadiga qaytish. Ibodatdan maqsad ham Allohning roziligiga erishish.

7. *Nigohdosht*- نگاه داشت. U qalb eshigi oldidagi dunyoviy vasvasalarni ichkariga kiritmaydi. Nigohdosht yo'li – ko'ngilga sohib bo'lib, unga Alloh sevmaydigan narsalarni kiritmaslikdir. Nigohdosht – ul iboratdur muroqabayi havotirdin,

ondog'kim bir damda necha martaba "kalimayi toyyiba"ni oyturkim, xavotiri g'ayrig'a tashqari ketmas [3,44].

8. *Yoddosht*- ياد داشت. Banda Allohni doimo zavqu shavq bilan yodida tutadi. O'zi erishgan kamolot bosqichini himoya qiladi. Tili ila aytmay qalbi bilan zikr qilish nigohdosht bo'lsa, yoddosht – nigohdoshtda mustahkam turmoqlikdir.

9. *Vuqufi qalbiy*- وقوف قلبی. Inson qalbidan doimo xabardor bo'lishi lozim. Har ishni aql tarozida tortib ko'rmog'I kerak.

10. *Vuqufi adadiy*- وقوف عددي. Ahli ko'ngil vakillari, toliblar zikr adadiga rioya qilishi lozim. Ma'lum bir jummalarni bir nafasda aniq sanoqda aytishni mashq qila olishi lozim. Bundan maqsad, adadga rioya qilinsa inson o'z hayolini ham nazorat qila oladi.

11. *Vuqufi zamoni*- وقوف زمایی. So'fiy vaqtini doimo qadrini, sarhisobini bilishi kerak. "Rashohot" asarida keltirilishicha, Hazrat Naqshband ushbu rashhalardan rioyati adadni lozim sanamaslar ham vuqufi qalbiyini muhim tutkanlar.

Bahouddin Naqshbandning tasavvuf ta'limotidagi eng asosiy xizmatlaridan biri vaqt haqidagi ilmni inson kamolotining asosiga qo'ydi. Uning tarixiy xizmatlaridan biri «Vuqufi zamoni» «Zamon,vaqtdan ogohlik» rashhalarini va hayotbaxsh o'gitlarini Naqshbandiya ta'limotining asosiy tamoyili sifatida kiritdi. Vuqufi zamoni inson o'zi yashayotgan davri qanday kechayotganligidan ogoh bo'lishi, umr bir marta berilishi va inson umrini xayrli, ezgu ishlarga sarf etishi lozim, g'aflatda qolmasligi, loqayd bo'lmasligi, ogoh va hushyor, bo'lishi kerak degan mazmun-mohiyatni bildiradi.

Abdulxoliq G'ijduvoni «umr eng ulug' sarmoya, yo'qotilgan vaqt shu sarmoyaning bexuda sarflanishi» deb uni asrash lozimligini vasiyat qilganlar. Orif Revgariy «Orifnoma» asarida «Vaqt qilich kabi keskir» degan. Umuman tasavvuf ahlining barcha shayxlari vaqtini qadrlaganlar. Xojagon ta'limotida Yusuf Hamadoni tomonidan kiritilgan «Hush dar dam» tamoyilida ham ushbu g'oya aks etadi.

Ammo Bahouddin Naqshbandning xizmatlari shundaki, «Vuqufi zamoni» rashhasini nazariy jihatdan asoslab, Naqshbandiya tariqati amaliyotida joriy etdi.

Vaqt falsafiy tushunchasi olamning atributi bo'lib, barcha ob'yektlar mavjudligining davomiyligini va holatlar almashuvining izchilligini

ifodalaydi. Vaqt tushunchasi muhim falsafiy kategoriyalardan biri sifatida klassik fanda o'ziga xos va noklassik fanda o'zgacha talqin etilgan. Ilk tasavvufiy g'oyalarni nazariy tahlil etgan Hujviriylarning ilmlarni quyidagi xillari borligini yozgan:

1. Vaqt ilmi.
2. Asosiy va ikkinchi darajali ilm.
3. Haqiqat ilmi.
4. Qonun ilmi.

Hujviriylarning ilmlar tasnifidan ma'lum bo'ladiki, tasavvuf ahli ilmlar ichida «vaqt ilmi»ni muhim sanaganlar, vaqtni ilm deya ko'rib uni o'rganganlar, tadqiq etganlar va uni hayot uchun muhim deb bilganlar.

Vaqt tasavvufda, shuningdek, ruhiy holatning ta'rifi bo'lib, bunday holatda inson vaqt ustidan nazorat qila oladi, ya'ni o'z-o'zini shu vaqt ichida boshqara oladi.

Hujviriylarning «Kashf ul-mahjub» asarining 24-bobida asosiy tasavvufiy tushunchalarni izohlashni «hol» va «vaqt»ning talqinidan boshlagan. Vaqt - sufiyona istiloh bo'lib, shayxlar uni juda ko'p muhokama qiladilar. «Vaqt o'tmish va kelajakdan qat'iy nazar inson hozir amalga oshiradigan ishi», deydi Hujviriylar. So'fiy o'tmishni eslash, qo'msash, kelajakni orzu qilish bilan emas, vaqt ichida andar vaqt bo'lishi va hushyor, ogoh bo'lishi kerak. So'fiylar uchun «o'tmish» va «kelajak» bilan band bo'lish kamolotlariga to'siq deb ta'rif qiladilar. Chunki inson faqat o'tmish bilan yashasa va yoki kelajak orzusida vaqtini o'tkazsa faol bo'lmaydi, unga berilgan vaqtni behuda o'tkazadi. Kelajakni bilmaymiz va bilmagan narsa haqida o'ylash xato ishdir. Eng qimmatli narsa o'tmish va kelajak orasida senga berilgan vaqtdir. Uni behudaga o'tkazmaslik kerak.

Mashoyixlarimiz aytadilarki, aslida tariqatdagi muhim narsa – masjiddagi hilvat-yolg'izlikdan iborat holini xalq-jamiyat orasida ham davom ettirish, shu holni muhofaza qila bilishdir. Shuning uchun tariqatda “xilvat dar anjuman” asosiy rashhalardan sanaladi [6,156]. Rashhaning tub ma'nosi shundaki, solik xalqning ichida ham Haq bilan bo'lishidir. Bahouddin Naqshband ta'kidlaganidek : “ Qo'li ishda, ko'ngli yorda” bo'ladi. Qalb haqidagi Bahouddin Naqshband g'oyasi Robiya Adaviya, Muhosibiy, Abdulqodir G'iylo'niy, Abdulxoliq G'ijduvoniylar, Orif Revgariylar ta'limotidan oziqlangan [4, 94-95].

XULOSA

Bahouddin Naqshband inson o'zini anglay olishi va barkamollikka erishishi uchun qalbdan ogoh bo'lishini Naqshbandiya ta'limoti va tariqat yo'liga “Vuqufi qalbi” rashhasi asifatida asosiy tamoyil qilib kiritgan. Asosiy vosita qilib inson nafsini tarbiyalashini tavsiya etgan. Rashhalarda keltirilgan rivoyatlarning barchasida odamlarning to'g'ri yo'ldan yurib, nafsni poklab, komillikka erishishga olib boradigan yo'llar mazmuni ochib berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. – T.: Fan, 1983. – 644 b.
3. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot. – T.: Abu Ali Ibn Sino, 2004. – 536 b.
4. Navro'zova G. Naqshbandiya – Hushyorlik yo'li. – Buxoro, 2024. – 224 b.
5. Navro'zova G. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma'naviy merosi. – T.: Fan, 2021. – 244 b.
6. Sayfiddin Sayfulloh. Xojagon-naqshbandiya (asoslar va rashhalar). – T.: O'zbekiston, 2020. – 208 b.